



ATOIY IJODIDA YUKLAMALARNING QO'LLANILISHI

Xudoynazarova Bahoroy Uktam qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo
xalqlari tillari va madaniyati instituti 301-guruh talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Atoiy g'azallarida qo'llangan yuklamalar tahlil qilinadi. Unda yuklamalarning o'zbek adabiy tilidagi o'rni, tarixiy shakllanishi hamda XIII-XV asrlar yodnomalari tilidagi qo'llanish xususiyati yoritilgan. Yuklamalar tuzilishi va vazifasiga ko'ra guruhlariga ajratilib, ularning ma'no ottentaklari misollar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: Atoiy, yuklama, g'azal, ta'kid, kuchaytiruv, so'roq yuklamalari.

O'zbek tili va adabiyoti taraqqiyotida Atoiyning alohida o'rni mavjud. U o'z asarlari bilan XV asr o'zbek adabiyotigagina emas, balki o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham munnosib hissa qo'shgan. Atoiy Muhammad Xorazmiy, Lutfiy, Sakkokiy singari adiblar bilan bir davrda yashagan va o'zbek tilida ijod qilgan ilk shoirlardan sanaladi. Uning asarlarida qadimgi turkiy tilning fonetik, leksik va grammatik jihatlari, shuningdek, fors-tojik adabiy an'alarining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Quyida Atoiy g'azallarida qo'llangan yuklamalarni ko'rib chiqamiz.

Yuklamalar mustaqil so'zlarga yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir. XIII-XIV asrlarga doir yodnomalar tilida iste'molda bo'lgan yuklamalar shakily ifodasi, qo'llanishi, ma'no xususiyati, ishlatilish o'rni jihatdan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Eski o'zbek tilda iste'molda bo'lgan yuklamalar tuzilishi va qo'llanishi jihatdan ikki guruhga bo'linadi: 1) bir guruh yuklamalar tuzilishiga ko'ra affikslarga o'xshab keladi va o'zi qo'shilib kelgan so'zga yoki butun gapga qo'shimcha ma'no beradi; 2) yuklamaning ikkinchi guruhi so'z yoki gap oldidan kelib, mustaqil so'z sifatida qo'llanadi. Lekin bunday so'zlar mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmasdan, gap mazmuniga qo'shimcha ma'no beradi.

Ma'no xususiyatiga ko'ra ko'ra yuklamalar ta'kidlash, ajratib ko'rsatish, kuchaytirish, so'rash, iltimos, aniqlik, qat'iylik, taajjub, taxmin, faraz, istak, orzu, o'xshashlik kabi ma'no ottentaklarini ifodalaydi. Yuklamalar odatda quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

- 1) kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari
- 2) so'roq va taajjub yuklamalari
- 3) ayiruv va chegaralov yuklamalari



4) aniqlov yuklamasi

5) gumon yuklamasi

-mu/-mi yuklamasi. Bu yuklama odatda so'roq ma'nosini, qisman ta'kid, taajjub kabi ma'nolarni ifodalaydi:

- Nargisga boqdi deb meni yozg'urdi ko'zlari,

Usruk kishi bilurmu kishining gunohini.[5;107]

Baytda oshiqning iztirobi va yorning asossiz rashki tasvirlangan. Yorning ko'zlari go'yoki oshiqni boshqa go'zalga qaradi deb ayblaydi va uni malomat qiladi. Bu yerda yuklama ritorik so'roq ma'nosini ifodalab kelgan.

-mu yuklamasi ko'pincha kesim vazifasida kelgan so'zlarga qo'shilad. Ba'zan boshqa so'zlarga ham qo'shib keladi va shu so'zni ta'kidlab, alohida ajratib ko'rsatadi. Bu hol asosan XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos bo'lgan. Masalan: Xo'blar jabr-jafosin men-mu tortarmen mudom. [1]

-u yuklamasi ta'kid, kuchaytiruv yoki keyingi harakatning oldingi harakat tugashi bilan boshlanganligini anglatadi:

- Men base miskinmen-u, siz husn ila asru g'ani,

Ayb emas, ko'z tutsa miskinlar tavongardin murod.[5;20]

Baytda shoir o'zini kamtarona tasvirlayapti (miskin) va yorning go'zalligi, boyligi bilan solishtiryapti. Yuklama ta'kid ma'nosida.

Manbalarda fors-tojik va arab tillaridan o'zlashgan magar, koshki, illo, hatto, bale, axir, bas, ham kabi yuklamalar ham keng iste'molda bo'lib, bular turli ma'nolarda qo'llangan.

Magar yuklamasi taxmin, gumon, faraz, taajjub, ajratib ko'rsatish kabi ma'nolarni ifodlaydi:

- Baxti gumrahdinmudur, yo Rab, manga mahrumluq

Yo magar matlubig'a yetmas talabgoring saning.[5;60]

Baytda shoirning iztiroblari ifodalangan. Magar yuklamasi orqali baytga ta'kid, shubha, hissiylik qo'shilgan.

Illo yuklamasi faqat va magar yuklamalarining sinonimi sifatida qo'llangan:

Beling fikr-u xayolin bog'lamoqda,

Tasavvur qilmasa el, illo, kamarda. [5;9]

Bas yuklamasi ta'kid, tasdiq kabi ma'nolarni ifodalaydi:

- Dunyoda, bas, darbadarliq birla kezduk, topmaduq

Ganji vaslingg'a muhabbat bobidin o'zga kalid.[5;19]

Bale yuklamasi tasdiq ma'nosini bildiradi:



- Menum ko'nglumdasen, ey husn ganji,

Bale, har ganj erur vayrong'a loyiq.[5;54]

Ham yuklamasi ta'kid, kuchaytiruv kabi ma'nolarni ifodalaydi:

- Eyki, xo'blar ko'zgusinda o'zin izhor aylagan

Ham o'zi ul ko'zguga boqib meni zor aylagan.[5;5]

Balki (balkim) yuklamasi ma'noni kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi:

- Emdi bildim, rost ermish, balki ko'rdum ko'z bila,

Ulki derlar suv qizi, gah-gah ko'zga ko'runur.[5;41]

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimiz va o'zbek adabiy tili tarixida shoirning munosib o'rni borligini ta'kidlab aytish maqsadga muvofiq. Atoiy xalqona ruhda g'azallar yozgan. Undan bizgacha 260 g'azalni o'z ichiga olgan devon yetib kelgan va uning qo'lyozma nusxasi hozirgi kunda Sank-Peterburgda saqlanmoqda. Aniqlanishicha, Atoiy 260 ta g'azalidan 109 tasini xalq qo'shiqlari vaznida yaratgan. Bu uning xalq tili boyliklaridan unumli foydalanib, ijod etganligini ko'rsatadi. Shoir o'z asarlarida yuklamalardan mahorat bilan foydalanib, nutqning ifodaviyligini, ta'sirchanligini va emotsional rang-barangligini oshirgan. Shuningdek, yuklamalarning turli shakl va ma'no xususiyatlari o'sha davr o'zbek tilining boy va rivojlangan tizimga ega bo'lganini ko'rsatadi. Atoiy ijodida uchraydigan mahalliy hamda o'zlashma yuklamalar til taraqqiyotidagi uzviylikni, madaniy va til aloqalarini ham aks ettiradi. Shu bois Atoiy g'azallaridagi yuklamalarni o'rganish nafaqat tarixiy grammatika, balki o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini chuqurroq anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 527.
2. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 324
3. Raxmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - B. 298.
4. Saidov Y. Atoiy va o'zbek adabiy tili. "Science and Education" science journal, 2025.
5. Shayxzoda Atoyi: g'azallar/ nashrga tayyorlovchi Kenjayev M. – Toshkent: Akademnashr, 2020, - B.128.